



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

FITRAT IJODIDA IFODALANGAN AYRIM SO‘ZLARNING LEKSIK-SEMANTIK, PRAGMATIK TADQIQI

Shaxnozaxon USMONOVA*

Annotatsiya

O‘zbek tilshunosligida jadid ma’rifatparvarlarining tilshunoslik merosi, ular yaratgan badiiy, ilmiy, publitsistik asarlarning til xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, olingan ilmiy natijalar o‘zbek milliy tilining XIX asrning oxiri XX asr boshlarida uning asosini tashkil etuvchi davr adabiy tilining muhim lisoniy xususiyatlari haqida yetarlicha tasavvur bera olmaydi. Zero, jadid davri publitsistik asarlarining tili o‘sha davr adabiy tili leksikasi hamda terminologiyasi rivojiga qo‘shilgan munosib hissa bo‘lib, uni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish XX asrning 20-30-yillar davri o‘zbek adabiy tilining rivojlanish va boyish tendensiyalarini belgilashda muhim va munosib material bera oladi. Ushbu ilmiy maqolamizda yorqin jadidlarimizdan biri – Abdurauf Fitratning maqolalarida qo‘llangan ayrim so‘zlarning leksik vasesemantik tadqiqi haqida so‘z yuritilgan. Shu bilan birga Abdurauf Fitratning publitsistikasida ko‘zga tashlanadigan nozik jihatlar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy, ilmiy, publitsistik asarlar; jadid, pragmatika; leksik-semantik, sintaktik-semantik aspektlar, lisoniy me’yor, maqola, umumiy lingvistik xususiyatlar, lug‘aviy tarkib, sinonim, antonim.

Lexical-Semantic and Pragmatic Study of Certain Words Expressed in Fitrat’s Works

Abstract

Although substantial work has been carried out in Uzbek linguistics on the linguistic heritage of Jadid enlighteners and the language features of their literary, scientific, and publicistic works, the results obtained do not yet provide a sufficiently complete picture of the important linguistic characteristics of the Uzbek national language at the turn of the 19th and early 20th centuries, which form the basis of that period’s literary language. Indeed, the language of Jadid publicistic works represents a worthy contribution to the development of the lexicon and terminology of the literary language of that era; studying it from a linguistic perspective can offer significant and valuable material for defining the tendencies of enrichment and development in the Uzbek literary language of the 1920–1930s. In this scientific article, we discuss the lexical and semantic study of certain words used in the articles of one of our prominent Jadids – Abdurauf Fitrat. The scientific article explores the

* Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Namangan viloyati akademik litseyi o‘qituvchisi, zafarbekismatov@gmail.com

lexical and semantic study of certain words used in Abdurauf Fitrat's articles and also examines subtle aspects observed in Fitrat's publicistic writings.

Keywords: literary, scientific, and publicistic works; Jadid; pragmatics; lexical-semantic and syntactic-semantic aspects; linguistic norms; article; general linguistic features; vocabulary; synonym; antonym.

Tilshunosligimiz taraqqiyotida har bir davr ijodkorlarining o'rni beqiyos bo'lgan. Shu jumladan, jadid ma'rifatparvarlarining tilshunoslik merosi, ular yaratgan badiiy, ilmiy, publitsistik asarlarning til xususiyatlarini o'rganish bo'yicha qilgan ishlari ham tahsinga sazovordir. Ularning o'zbek tilshunosligiga qo'shgan hissalarini ko'pchilik olimlarimiz tomonidan munosib o'rganilgan bo'lsa-da, olingan ilmiy natijalar o'zbek milliy tilining XIX asrning oxiri XX asr boshlarida uning asosini tashkil etuvchi davr adabiy tilining muhim lisoniy xususiyatlari haqida yetarlicha tasavvur bera olmaydi. Zero, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek: "Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi" (Mirziyoyev, 2023, 2-bet). Yurtboshimizning bu fikrlarini keng targ'ib qilishda jadidlarimiz yaratgan asarlarini tahlil qilish orqali ham hissa qo'shsa bo'ladi. Bunday muhim nazariy va amaliy ahamiyatga molik muammoning hal etilishida ma'rifatparvar jadid adiblari tomonidan yaratilgan barcha janrdagi asarlarning lingvistik tadqiqini amalga oshirish lozim bo'ladi. Jadid davri publitsistik asarlarining tili o'sha davr adabiy tili leksikasi hamda terminologiyasi rivojiga qo'shilgan munosib hissa bo'lib, uni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish XX asrning 20-30-yillar davri o'zbek adabiy tilining rivojlanish va boyish tendensiyalarini belgilashda muhim va munosib material bera oladi. Bu galgi maqolamizda jadidimiz Abdurauf Fitratning yozgan maqolalaridagi ayrim so'zlar tahliliga to'xtalamiz.

Abdurauf Fitrat – birinchi o'zbek tilshunos professori, ilk ona tili darsligi muallifi, tilimizning grammatikasini kitob holatiga keltirgan va asoslab bergan dastlabki o'zbek olimidir. U nafaqat tilshunosligimiz, balki adabiyotshunoslik, pedagogika, publitsistika yo'nalishlari uchun ham muhim va qimmatli manbalarni yaratgan buyuk shaxslardandir. Uning badiiy ijodi, ma'rifiy, pedagogik faoliyati haqida u hayotlik chog'idayoq maqolalar yozilgan. Ular qoldirgan ma'lumotlar qimmatlidir. Mustaqillik yillarida Fitrat shaxsi, faoliyati, ijodiy merosini o'rganish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ular qatorida B.Qosimov (Қосимов Б., 1995, 7-bet), A.Aliyev, Sh.Rizayev (Ризаев, 1997, 38-bet), S.Avazovlarning tadqiqotlarini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi.

Abdurauf Fitratning tilshunoslik faoliyati va u yaratgan badiiy asarlarning lingvistik xususiyatlari o'zbek tilshunosligidagi ba'zi ishlar istisno qilinsa, mukammal darajada tadqiq etilgani yo'q. Jumladan, filologiya fanlari doktori, professor H.Boltaboyev (Boltaboyev, 2009, 5-11-betlar) o'z maqolasida adib asarlarining umumiy lingvistik xususiyatlari, lug'aviy tarkibi va uning XX asr boshlaridagi o'zbek adabiy tilining shakllanishidagi ahamiyatini ko'rsatishga harakat qilgan bo'lsa, professor B.Qosimov o'z tadqiqotida jadidchilik vakillari yozgan dramalarning o'zbek milliy adabiy tilining shakllanishidagi rolini Abdurauf Fitrat, Behbudiy va Avloniy asarlari leksikasi misolida baholashga intilgan. Biz bugun ushbu ilmiy maqolamizda olimimizning publitsistika yo'nalishida yaratgan maqolalarini lingvopragmatik tahlilga tortamiz.

Avvalo, shuni ta'kidlash kerakki, Abdurauf Fitrat publitsistik asarlari tili leksikasini o'rganish, uning o'ziga xos lug'aviy, ma'noviy xususiyatlarini belgilashdan iboratdir.

O'zbek adabiy tilining XX asr boshlaridagi me'yoriy murakkabligi va qorishiqqligi, uni yuzaga keltirgan ijtimoiy, davriy, hududiy kabi nolisoniy hamda tilning sinxron holatidan iborat lisoniy birliklarning nutqiy voqelanishidagi lingvistik omillar adabiy tilning leksik, grammatik, imloviy me'yorlashuvidagi barqarorlik va beqarorlik jarayonlari tahlili misolida ochib bersak:

“O'tgan olimlar-u hakimlar shu masalada sa'y-harakat qilib qonunlar ishlab chiqqanlarkim, ularning umumiy hay'atini “manzil tadbiri” (ro'zg'or tebratish tartibi) deb ataydilar”. (Boltaboyev, 2009, 215-bet)

Abdurauf Fitrat publitsistikasi tilining lug'aviy tarkibi hamda unda qo'llangan leksik birliklarning semantik qirralari ijodining ma'rifatparvarlik, millatparvarlik, vatanparvarlik, oilaparvarlik mavzulari bilan aloqador ekanligi, bu holat publitsistik maqolalari tilining g'oyaviy mazmunini ta'minlashda muhim o'rin egallashini ham maqolalari orqali ko'rib chiqsak:

“Qayerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarini zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi”. (Boltaboyev, 2009, 215-bet)

“Mamlakatimizdagi xotinlar har daqiqada qanchadan qancha tahqir va jafolarga duchor bo'lib yashamoqdalar. Biz turkistonliklar o'z xotinlarimizni odamiyat doirasidan tashqarida deb o'ylaymiz va u bechoralarga odamga qilgandek muomala qilmaymiz. Ko'p holatda hayvonlarning holiga yuragimiz achishadi. Ammo ayollarning parishon hollariga muruvvatimiz yetmaydi”. (Boltaboyev, 2009, 240-bet)

“Agarda ko'zingizni xurofot va manmanlik pardasi to'smagan bo'lsa, Buxoro va Buxoro ahliga nazar tashlang! Hamma narsa kundek ravshandir. O'ringizdan

turingda, hikmat kamarini belingizga bog‘lab, aql va hikmat mezoni bilan jismoniy, fikriy va axloqiy ahvollariningizni tekshiring. Aksar bunga hafsalamiz yetmaydi. Shunday bo‘lsa menga hamrohlik qilsangiz, men bu xususda ham sizga yordam beraman”. (Boltaboyev, 2009, 4;264-bet)

Abdurauf Fitrat publitsistikasida til ifodalari orasida sinonim, antonim kabi leksik-semantik munosabatlarning o‘ziga xos tarzda voqelanishi, ba’zi so‘zlarning yangi ramziy ko‘chma ma’nolarda qo‘llanganligiga ham misollar mavjud:

“Turk so‘zi esa, **og‘ir, vigorli, gavdalidir (sinonim)**”. (Boltaboyev, 2009, 9-bet)

“Yetti-sakkiz so‘zni bilgili bir vaznda tizib, ketinda bilgili bir so‘zni qofiya qo‘ymoq bilan she‘r orasinda **yerdan ko‘kkacha (antonim)** ayrima bordir”. (Boltaboyev, 2009, 6-bet)

“Bir necha kishilar she‘r uchun **“hunarlicha so‘zlar”ning (ramziy)** ham teyishligini inkor qilarlar”. (Boltaboyev, 2009, 7-bet)

Umuman olganda, Fitratning publitsistik faoliyati XX asr boshlaridagi yangi o‘zbek adabiy tilining shakllanish davriga, til birliklarining me‘yorlashishidek murakkab jarayonga, ya’ni “eskilik” bilan “yangilik” o‘rtasida kurash borayotgan bir davrga to‘g‘ri keldi. Tildagi me‘yoriy ko‘rinishlarning tanlana borishi, davr adabiy tilini shakllantirish ishiga A.Fitrat ham publitsistik asarlarining tili va uslubi orqali sezilarli hissa qo‘shdi:

“Go‘zal san’atlarda tovar (materiyol) tovush, ohang (sinonim) bo‘lsa, go‘zal san’at musiqiy bo‘ladir; bo‘yovlar, chiziqlar bo‘lsa, rasm (uyadosh so‘zlar) bo‘ladir; tosh yo boshqa turli ma’danlar esa, haykalchilik bo‘ladir; tosh, yog‘och, kirpich, ganj, tuproq bo‘lsa, me‘morliq (uyadosh so‘zlar) bo‘ladir; tan, mug‘a harakatlari esa o‘yun (tans) (uyadosh so‘zlar) bo‘ladir; gap, so‘z esa, adabiyot (uyadosh so‘zlar) bo‘ladir”. (Boltaboyev H., 2009, 12-bet)

Yuqoridagi misollar Abdurauf Fitratning davr adabiy tilini shakllantirish va takomillashtirish borasidagi lingvistik qarashlari o‘zbek tilshunosligining XIX asr oxiri XX asr boshlari davriga oid mavjud nazariy fikrlarni boyitishga xizmat qilganini isbotlaydi. Yana adibning o‘zbek tilshunosligida publitsistik uslubga xos bo‘lgan hozirjavoblik, hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirish, isbotlash, o‘quvchini bunga ishontirish hamda shu maqsadga muvofiq holda tilning lug‘aviy birliklaridan foydalanish kabi lisoniy me‘yorlar va pragmatikaning shakllanishidagi xizmatini ham ko‘rsatib bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar

Mirziyoyev Sh. (2023). *Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi*.

Ризаев Ш. (1997). *Жади́д дра́масы*. Шапқ.

Boltaboyev H. (2009). *A.Fitrat (Tanlangan asarlar)*.

O'ZBEK TILIDAGI BOLALARGA OID REKLAMALARDA MADANIY KODLAR VA RANG

Maxbuba XUDAYBERGANOVA *

Annotatsiya

Ushbu maqola o'zbek tilidagi bolalarga mo'ljallangan reklama matnlarida madaniy kodlar va rang semiotikasining qo'llanilishi masalasiga bag'ishlangan. Tadqiqotda "ESSI" yogurti va "Stopdiar" dori reklamalari tahlil qilingan. Reklama matnlarida diniy kodlar ("Qurbon hayitingiz muborak!" kabi bayramona tabriklar), oilaviy kodlar (ona-bola munosabatlari va oila qadryatlarining tasviri) hamda milliy kodlar (an'anaviy me'morchilik elementlari va etnik naqshlar) taxlil qilingan. Rang tizimida qizil rangning himoya va ogohlantirishlik vazifasi, oq rangning poklik, halollik va ishonchlilik ma'nolari, yashil rangning tabiiylik, sog'lomlik va hayot ramzlari ekanligi batafsil yoritilgan. Tadqiqot zamonaviy diskurs-analiz va semiotik tahlil usullari bilan sistemali ravishda amalga oshirilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek bolalar reklamasida an'anaviy madaniy qadriyatlar zamonaviy marketing strategiyalari va global brending yondashuvlari bilan uyg'unlikda yaratilgan.

Kalit so'zlar: madaniy kodlar, rang semiotikasi, bolalar reklamasida, o'zbek tili, ESSI, Stopdiar, diniy kodlar, milliy ramzlilar.

Cultural Codes and Color In Uzbek Children's Advertising

Abstract

This article is devoted to examining the application of cultural codes and color semiotics in advertising texts specifically intended for children in the Uzbek language. The research conducts an in-depth analysis of ESSI yogurt and Stopdiar medicine advertisements. Religious codes (festive greetings such as "Happy Eid al-Adha! "), family codes (depiction of mother-child relationships and family values), and national codes (traditional architectural elements and ethnic patterns) are analyzed in the advertising texts. Within the color system, the protective and warning function of red color, the meanings of white color representing purity, honesty and trustworthiness, and green color as symbols of naturalness, health and life are comprehensively highlighted. The research was systematically conducted using modern discourse analysis and semiotic analysis methods. The obtained results demonstrate that in Uzbek children's advertising, traditional cultural values are created in harmony with contemporary marketing strategies and global branding approaches.

* O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti, miss.maxbuba@gmail.com